

Jafarov Botir Sattarovich
Namangan davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

**CODEX CUMANICUS QO'LYOZMASIDAGI QUMAN TILI
GRAMMATIKASIGA LOTINCHA YOZILGAN IZOHLAR TARJIMASI**

Annotatsiya: Mazkur maqolada turkiy qo'lyozmalar ichida bugungi kungacha yagona lotin yozuvida yaratilgan qumanlarning muqovalangan qadimiy qo'lyozmasida lotin tilli foydalanuvchilarga berilgan grammatik izoh hamda uning o'zbek tilidagi tarjimalari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Qo'lyozma, fonetika, grammatika, tarjima, fe'l, qo'shimcha, izoh, lotin tili, shakl.

Жафаров Ботир Саттарович
**Профессор Наманганского государственного университета, доктор
филологических наук (DSc)**

**ПЕРЕВОД ЛАТИНСКИХ КОММЕНТАРИЙ К ГРАММАТИКЕ
КУМАНСКОГО ЯЗЫКА В РУКОПИСИ CODEX CUMANICUS**

Аннотация: В данной статье представлены сведения о грамматическом пояснении, данном латиноязычным пользователям, в древнем куманском рукописи латинского письма, единственном на сегодняшний день среди тюркских рукописей, и его переводах на узбекский язык.

Ключевые слова: Рукопись, фонетика, грамматика, перевод, глагол, суффикс, аннотация, латынь, форма.

Jafarov Botir Sattarovich
Professor of Namangan State University, Doctor of Philological Sciences (DSc)

**TRANSLATION OF LATIN COMMENTS ON THE GRAMMAR OF THE
CUMAN LANGUAGE IN THE CODEX CUMANICUS MANUSCRIPT**

Abstract: This article presents information about the grammatical explanation given to Latin-speaking users in the ancient Cuman manuscript of Latin script, the only one to date among Turkic manuscripts, and its translations into Uzbek.

Keywords: Manuscript, phonetics, grammar, translation, verb, suffix, abstract, Latin, form.

Kirish. O'rta asrlarda lug'at tuzish an'analari ancha keng tarqalgan. E'tiborli jihati shundaki, o'tmishda yaratilgan lug'atlar yolg'iz so'zlikning o'zidan iborat bo'lmay, ularda grammatik qoidalar ham berilgan. Masalan, lug'atdan joy

olgan muayyan guruh soʻzlardan keyin ularning grammatik qoidalari, koʻp oʻrinda esa soʻzning talaffuzi yoki morfem tuzilishini berish maqsadida unga tegishli fonetik va morfologik qoidalar keltiriladi. Yana bir jihati, oʻtmishda yaratilgan grammatik asrlarning koʻpida birinchi boʻlimi lugʻat boʻlsa, keyingi boʻlimlar grammatik qoidalarga bagʻishlangan[6].

Adabiyotlar. Shuni taʼkidlash joizki, mavzu jahon tilshunosligida batafsilroq oʻrganilgan. “Kodeks kumanikus” qoʻlyozmalarini tadqiq etish, ularning oʻziga xosligi hamda til xususiyatlarini har tomonlama tahlil etish, qoʻlyozmalar leksikasi, til xususiyatlariga oid tadqiqotlar asosida dunyoning turli sohalaridagi olimlar bir qancha amaliy ishlarni olib borganlar. Bu borada Yu.Klaprot, T.Xoutsma, G.Kuun, V.Radlov, V.Bang, A.Qoʻrishjonov, A.Garkaves, M.Argunshah va G.Goʻner, B.Jafarovning tadqiqotlari alohida eʼtiborga molik.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda komponent va transformatsion tahlil metodlari bilan bir qatorda, demografik tahlil, kuzatish va izohlash kabi tarkibiy usullar, shuningdek, tarixiy kontekstli tahlil, va assotsiativ eksperimental usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Qoʻlyozmaning 64a sahifasi 1-satridan 64b sahifasi 33-satrigacha quman tili grammatikasiga lotin tilida yozilgan izoh alohida ilmiy qimmatga ega boʻlib, u quyidagi tavsifga ega:

Nota quod ista dicio «**lar**» addita uerbis uel nominus uel pronomibus uel participiis in quocumque casu uel tempore uel modo terminantibus in a ut бага facit pulralem numarum verbi gracia vet «**kisi**» est homo sed «**kisilar**» sunt homines. «**tis**» est dens sed “tisar” sunt dentes exemplum sit verbo. «**tattar**» est gustat sed «**tattarlar**» est gustant. Hoc tantum est intelligendum solum in uerbis tercia persone quia prima et secunda habet aliam regulam sicut infra dicitur (CC 64a/1-6).

Tarjimasi: eʼtibor bering, “lar” qoʻshimchasi biror-bir shaxs yoki buyumlarning nomiga hamda feʼllarga qoʻshilib, ot, olmosh va feʼllarning koʻplik

shaklini yasash uchun qo'llangan. Masalan: “kishi” ko'plik shakli – “kishilar”. Birlikdagi “tish” otiga qo'shilib “tishlar” kabi ko'plik shaklini yasaydi. Uchinchi shaxs birlikdagi “totar” fe'liga qo'shilganda esa, uning ko'plikdagi “totarlar” shaklini ifodalab keladi. Fe'llarga qo'shiladigan qo'shimchalarning boshqa shakllari quyida berilgan.

Nota quod ista dicio «**asru**» facit superlatium tam in nominibus quam in verbis preponendo eam sicut verbi gracia «**kara**» est nigrum sed «**asru kara**» est nigerrimum et «**tatli**» est dulce sed «**asru tatli**» est dulcissimum et sic est de uerbis exemplum «**tilermen**» est volo sed «**asru tilermen**» est magis volo et «**sozlermen**» est loquor sed «**asru sozlermen**» est multum magis loquor et sic de omnibus aliis uerbis et nominibus infallibiliter (CC 64a/7-11).

Tarjimasi: e'tibor bering, «**asru**» faqatgina sifatning orttirma darajasi uchun ishlatilgan emas, u “qara” (qora) so'ziga qo'shilganda “asru qara” (qop-qora) ma'nosida sifatning orttirma darajasi bo'lib kelgan bo'lsa-da, “tatlü” fe'lga qo'shilganda “asru tatlü” (ship-shirin), “tilärmen” (tilarman) fe'li bilan “asru tilärmen” (ko'p narsa tilarman), «sözlärmen» (so'zlarman) fe'li bilan «asru sözlärmen» (ancha ko'p so'zlarman) ravish ma'nolarini ifodalab kelgan.

Nota quod ista dicco “rak” uel dicio “rek” postposita nomini potituo facit con partum sicut hic “kara” est niger sed “kararak” est nigrior, “kati” est durus sed “katirak” est durior. “tuz” est rectus sed “tuzrek” est rectior quando autem debeat adi “rak” uel “rek” non est regula firma (CC 64a/12-15).

Tarjimasi: e'tibor bering, “rak” (roq) yoki “rek” (rek) qo'shimchasi sifatning qiyosiy darajasini ifodalash uchun ishlatiladi. “kara” (qora) qiyosiy darajasi “kararak” (qoraroq) yoki jismni qiyoslash uchun “kati” (qattiq) qiyosiy darajasi “katirak” (qattiqroq), “tuz” (to'g'ri) so'zi misolida esa, qiyosiy daraja uchun “rak” (roq) yoki “rek” qo'shimchasi bilan “tuzrek” (to'g'riroq) ma'nolarni ifodalab kelgan.

Nota quod ista dicio “kibi” addita alicui nomini denotat aliqui similitudinem vt “to'uz” est porcus sed “to'uz kibi” est sicut porcus (CC 64a/16-17).

Tarjimasi: e'tibor bering, "kibi" (kabi) so'zi biror bir jismni yoki predmetni boshqa jismga qiyoslash uchun ishlatilgan. Masalan: "to'g'uz" (to'ng'iz) "to'g'uz kibi" (to'ng'iz kabi) ma'nosida.

Nota quod ista diccio "çi" addita alicui nomini facit nomen magistrale illud rei quam significat illud nomen cui additur sicut veri gracia "øtmek" est panis sed "øtmekçi" est ille qui facit panem "çekmen" est pannus sed "çekmençi" est qui facit panem et sic de similibus (CC 64a/18-21).

Tarjimasi: "çi" qo'shimchasi otdan ot yasovchi qo'shimcha bo'lib, u odatda kasb yasovchi qo'shimcha sifatida ishlatilgan. "øtmek" (non) so'ziga qo'shilganda non yopuvchi ma'nosida "øtmekçi" (nonchi), "çekmen" (chakmon) so'ziga qo'shilganda kiyim tikuvchi, ya'ni "çekmençi" (chakmonchi) ma'nolarini ifodalab keladi.

Nota quod ista diccio "lik" addita nomini concreto facit illud abstractum sicut verbi gracia "eigi" est bonum sed "egilik" est bonitas "kara" est nigrum sed "karalik" est nigredo "bir" est vnus sed "birlik" est vnitas "kønu" est iustus sed "kønulik" est iusticia et sic de singulis aliquando tamen ponitur "luc" vel "lik" (CC 64a/22-25).

Tarjimasi: e'tibor bering, "lik" (lik) qo'shimchasi mavhum otlar yasash uchun ishlatiladi. Masalan: "eigi" (yaxshi) so'ziga qo'shilganda "eigilik" (yaxshilik). Bundan tashqari, "kara" (qora) so'ziga qo'shilib "karalik" (qoralik), "bir" (bir) – "birlik" (birlik) hamda "kønu" (ishonchli) – "kønulik" (ishonchlilik) kabi. Ba'zi o'rinlarda "lik" o'rnida "luc" shakli qo'llaniladi.

Note qued ista diccio "mak" addita uerbo secunde personoem imperatiui modifacit nomen deriuatum nomen autem deriuatum appello illud quod descendita uerbo sicut comestio a comedendo bibicio a bibendo oracio ab orandi verbi gracia "oltur" est sede sed "olturmak" est sessio "tur" est sta uel surge sed "turmak" est stacio uel surreccio et sic de alliis (CC 64a/26-30).

Tarjimasi: e'tibor bering, "mak" (moq) qo'shimchasi buyruq maylidagi fe'llarga qo'shilib, ularning infinitiv shaklini yasaydi. Masalan: "oltur" (o'tir) kishining biror joyga o'tirishini anglatuvchi buyruq gap infinitiv shakldagi

“olturmak” (o‘tirmoq) yoki aksincha, kishining turishini ifodalovchi buyruq ohangidagi “tur” (tur) fe’lining “turmak” (turmoq) shaklidagi infinitiv formasi yasash uchun ishlatiladi.

Nota quod ista dicio “mi” facit interrogacionem interpositam inter uerbum et nomen in omni modo tempore persona sicut verbi gracia “bilir-sen” est scis sed “bilir-mi-sen” est scis tu “(ti)ler-sen” tu uis sed “tiler-mi-sen” uis tu et sic de aliis (CC 64a/31-33).

Tarjimasi: e’tibor bering, “mi” (mi) so‘roq yuklamasi darak ma’nosidagi so‘zlarga qo‘shilib, ularning so‘roq shaklini yasash uchun ishlatiladi. Mazkur yuklama so‘zda shaxs-son qo‘shimchasidan oldin keladi. Masalan: “bilir-sen” (bilarsan) so‘ziga qo‘shilganda so‘zning “bilir-mi-sen” (bilmisan) hamda “(ti)lär-sen” so‘ziga qo‘shilganda, uning “tilär-mi-sen” (tilarmisan) tarzidagi so‘roq shaklini yasaydi.

Nota quod ista dicios “siz” addita alicui nomini denotat priuacionem illius nominis sicut verbi gracia “baş” est caput sed “başsiz” est sine capita “el” est manus sed “elsiz” est sine manu “ti3” est genu sed “ti3siz” est sine genu “tiş” est dens sed “tişsiz” est sine dnente et de aliis (CC 64b/1-4).

Tarjimasi: e’tibor bering, “siz” (siz) inkor yuklamasi so‘zlarning inkor shakllarini yasash uchun ishlatiladi. Masalan: “baş” (bosh) so‘ziga qo‘shilganda uning «başsız» (boshsiz), “el” (el) so‘ziga qo‘shilganda uning “elsiz” (elsiz), “ti3” (ushbu o‘rinda oyoq ma’nosida) so‘ziga qo‘shilganda uning “ti3siz” (oyoqsiz) hamda «tiş» (tish) so‘ziga qo‘shilganda uning «tişsiz» (tishsiz) kabi inkor shakllarini ifodalab keladi.

Nota quod ista dicio “kez” addita numeris denotat vicem sicut uerbi gratia “bir” est vnem “bir kez” est semel et sic de duobus et tribus per totum numerum infailibiliter (CC 64b/5-6).

Tarjimasi: e’tibor bering, “kez” (pas) qo‘shimchasi sanoq sonlarni ifodalab kelgan so‘zlarga qo‘yilib, mavjud payt ma’nosini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: “bir” (bir) – “bir kez” (bir pas).

Nota quod de aliquot uerbo non habetur nisi tertia persona presentis indicatiui modi numeris singularis que semper finitur in er et per sub traccionem et adicionem fit prima et secunda persona et numeri pluralis in quolibet modo et tempore sicut per infra scriptas reguas declaratur sed antequam regule ponantur primo quem ordinem tenebo propanam videndum est primo quomodo illa tertia persona fit prima et secunda. Secundo quomodo fit numeri pluralis tercio quomodo uariatur per modos quarto quomodo distingutur per tempora quinto quomodo ista talia uerba fiunt negatiua et dico primo quod ista tertia persona sicut est “tiler”, “sözler”, “bilir”, “barir” fit prima per istam dictionem “men” addendo sicut “tiler-men”, “sözler-men”, “bilir-men”, “barir-men”. Et cetera est que “men” idem est quod ego. Et fit etiam secunda persona per adicionem istius dictionis “sen” quod est tu “tiler-sen” id est vis “sözler-sen” id est loqueris “bilir-sen”, “barir-sen” et hoc intelligitur in presenti tempore indicatiui modi. Et secundo fit numeri pluralis per istas dictiones “biz” id est nos “siz” id est vos et “lar” que faciunt semper pluralem munerum verbi gracia “tiler” id est wlt sed “tiler-biz” est volumus “sözler” est loquitur sed “sözler-biz” est loquimur sic est de secunda “tiler” est wlt sed “tiler-siz” est wltis “sözler” ist loquitur sed “söz-ler-siz” est loquimini. Sic est de terci persona “bilir” est scit sed “bilirler” sciunt “barir” est vadit sed “barirlar” vadunt et hoc est intelligendum in presenti tempore indicatiui modi. Et nota quod ad maiorem expressionem tandem aliquando preponuntur et preter ponuntur iste dictiones sicut hic “men tiler-men” id est ego uolo “sen liler-sen” tu uis “ol” est ille unde dicitur “ol tiler” id est ille wlt “ol bilir” ille scit et etiam in plurali “biz tiler-biz” nos volumus “siz tiler-siz” vos wltis in tertia persona non est consuetudo quod preponatur tamen siquidem vellent preponere possent dicere «anlar tilerler» id est illi volunt quia «anlar» est illi tercio quomodo uariatur per modos dicendum est primo quomodo sint modi imperatiui secundo quomodo indicatiui que talis ordo requiritur (CC 64b/7-31).

Tarjimasi: ta’kidlash lozimki, fe’llarning shaxs-sonda tuslanishi avvalgi qoidalardan farq qilmaydi, ya’ni fe’llarning shaxs-son yasovchi qo’shimchasi fe’l o’zagiga qo’shiladi. Ahamiyat beradigan bo’lsak, fellarning shaxs-son yasovchi

qo‘shimchalari qat’iy qoidaga amal qiladi. Masalan: “men” (men) shaxs-son yasovchi qo‘shimchasi “tiler” (tilar), “sözlär” (so‘zlar), “bilir” (bilar), «barër» (borar) so‘zlariga qo‘shilib, mazkur fe‘lning “tilär-men” (tilarman), “sözlärmen” (so‘zlarman), “bilir-men” (bilarman), «barër-men» (borarman) tarzidagi birinchi shaxs birlik shaklini yasaydi. “men” (men) qo‘shimchasi birinchi shaxs birlik shakli uchun ishlatilsa, fe‘llarning ikkinchi shaxs birlik shakli uchun “sen” (sen) shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilganda yuqoridagi fe‘llarning “tilär-sen” (tilarsan), “sözlärsen” (so‘zlarsan), “bilir-sen” (bilarsan), «barër-sen» (borarsan) tarzidagi ikkinchi shaxs birlik formasi yasaladi. Fe‘llarning birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxs ko‘plikdagi shaxs-sonda tuslanishi “biz” (miz), “siz” (siz) hamda “lar” (lar) qo‘shimchasi bilan ifodalanadi. Masalan: “tilär” (tilar) – “tilär-biz” (tilarmiz), “sözlär” (so‘zlar) – “sözlär-biz” (so‘zlarmiz), “tilär” (tilar) – “tilär-siz” (tilarsiz), “sözlär” (so‘zlar) – «sözlärsiz» (so‘zlarsiz) hamda “bilir” (bilar) – “bilärlär” (bilarlar), “barar” (borar) – “bararlar” (borarlar) kabi.

E’tibor bering, fe‘llarning birinchi shaxs birlikda tuslanishi “men tilär-men” (men tilarman), ikkinchi shaxs birlikda “sen tilär-sen” (sen tilarsan) tarzida kishilik olmoshlari bilan berilsa, uchinchi shaxs birlik uchun “ol” (u) kishilik olmoshi bilan “ol tilär” (u tilar), “ol bilär” (u bilar) tarzida ifodalanadi. Birinchi shaxs ko‘plikdagi shakli “biz tilär-biz” (biz tilarmiz), ikkinchi shaxs ko‘pligi “siz tilär-siz” (siz tilarsiz) tarzida kishilik olmoshlari bilan ifodalansa, uchinchi shaxs ko‘plik shakli “anlar” (ular) kishilik olmoshi bilan “anlar tilärlär” (ular tilarlar) tarzida ifodalanadi.

Xulosalar. “Kodeks kumanikus”da quman tiliga tarjima qilingan matnlar qo‘lyozmaning deyarli sakson foizli hajmini egallashi hamda uning tarkibida berilgan quman tili grammatikasiga lotin tilida yozilgan izoh asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, yodgorlik tuzilgan davrda boshqa tillarda so‘zlashuvchilar uchun turkiy tillar orasida quman tilining nufuzi anchayin yuqori o‘rinda turgan. Buning natijasi o‘laroq, o‘sha davrda Oltin O‘rdaga savdo qilish yoki turli maqsadlarda tashrif buyurgan boshqa tilli kishilarda quman tilini o‘rganish ishtiyoqi paydo bo‘lgan. Shu sababli ham qo‘lyozmadagi quman tili

grammatik qoidalariga yozilgan izohlar lotin tilida so‘zlashadigan kishilarga o‘rgatish maqsadida bayon qilingan.

Qo‘lyozmaning grammatik o‘ziga xosliklari turkshunoslikdagi ayrim tadqiqotlarning obyekti bo‘lganiga qaramasdan, “Kodeks kumanikus”dagi quman tili grammatikasiga lotin tilida yozilgan izoh yaxlit holda turkiyshunoslikda mazkur tadqiqotga qadar umuman tahlil etilmagan.

Asardagi izohlarda va ularda foydalanilgan morfologiya va sintaksisga doir materiallarni tadqiqotga jalb etilishi turkiyshunoslikda o‘z yechimini topmay kelayotgan muhim ilmiy muammolardan biri edi. Shu sababli ham maqolada qo‘lyozmadalargi har bir grammatik izohning o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga alohida urg‘u berildi. Ularning qo‘llanilish doirasi hamda ko‘lami bo‘yicha yakuniy xulosalar chiqarildi. Grammatik izohning ifoda imkoniyatlaridagi umumiy va xususiy holatlarning har biri tegishli misollar yordamida dalillandi. Bu izohlar uchun lug‘at tarkibidagi so‘zlarning qaysi manbaga mansubligidan qat’iy nazar, asosan turkiy til filolgiyasini o‘rganishining tayanch vosita vazifasini bajargan.

Bunda har bir grammatik izohlarning amal qilish doirasiga alohida urg‘u berilgan. Shunga qaramay, ba’zi izohlarning qiyoslanayotgan manbalardagi mavjud shakllari orasidagi tafovutlar asosan tuzuvchilar (yohud kotib)lar bilan aloqador ekanligi isbotlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жафаров Б. “Кодекс Куманикус” ҳамда “Таржумон туркий ва ажамий ва мўғулий ва фарсий қўлёзмаларининг қиёсий таҳлили: Филология фанлари доктори (DSc) дисс.. – Наманган, 2023.

2. Гаркавец А.Н. Венецианская рукопись Codex Cumanicus, ее новое прочтение и издание. – Астана, Каз. нац. акад. библиотека, 2015. 4 том.

3. Курышжанов А.К. Язык старокыпчакских письменных памятников XIII-XIV вв.: Автореф. докт. дисс. – Алма-Ата, 1973.

4. Курышжанов А.К. Исследование по лексике старокыпчакского письменного памятника XIII в – «Тюркско-арабского словаря» – Наука, Академии наук Казахстан. 1970. – 235 с.

5. Радлов В. Язык Кумановъ по поводу изданія куманскаго словаря – Санкт-Петербург. 1884. – 1-53 с.

6. Содиқов Қ. Тарихий лексикография / - Тошкент. 2011. Б.-5.

7. Klaproth J. Vocabulaire latin, persan et coman de la bibliothèque de Francesco Petrarcha // Mémoires relatifs à l'Asie, contenant des recherches historiques et philologiques sur les peuples de l'Orient. – Paris: SAINT-LOUIS, 1828. Tome troisième. – 520 p.
8. Houtsma M. Ein Türkisch-Arabisches Glossar. E.J.Brill. Leiden. 1894.
9. Bang W. Beiträge zur Kritik des Codex Cumanicus // Bull. Acad. Belg. – Belgium, 1911a. – T. 1. – 13-40 p.
10. Argunşah M., Güner G. Codex Cumanicus. – Istanbul, 2015. – 1038 s.